

**HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARI ASOSIDA YOSHLARDA MILLIY
IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH****Pulatov Baxodir Abduraupovich***Farg'ona davlat universiteti**Harbiy ta'lim fakulteti**Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i***Mamajonov Raximjon Akramjonovich***FDU Harbiy talim fakulteti katta o'qituvchisi***A'zamjonov Nodirjon Nozimjon o'g'li***Harbiy ta'lim fakulteti talabasi***Abdullajonov Begzodbek Farhodjon o'g'li***Harbiy ta'lim fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda Tarixiy shaxslar timsollari orqali yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish Hozirgi davrda harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish masalasi muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Etuk madaniyatli qahramonlik ideallarini o'zlashtirib, ularga qat'iy amal qilgan holda ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, vatanparvarlik, g'oya, iftixor, milliy, tuyg'u, urf-odat, Shiroq, To'maris, Alpomish, Muqanna.*

KIRISH

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy etuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning xuquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish bugungi kunning eng muhim dolzarb vazifalaridan bo'lib turibdi.

Vatan ravnaqi g'oyasi Vatanga daxldorlik hissi mazmunini, har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlar bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqbolning oliy maqsadi O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzuumidlarini amalga oshirishni ifodalaydi. Har qanday davlat o'z istiqbolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yoshlarni zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga etkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

ASOSIY QISM

Bugungi taraqqiyot bosqichida harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish vatanparvarlik va iftixor tarbiyasining ta'sirli mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Turli xalq, millat hamda elatlarning o'zligini anglashi ularning mustaqilligi,

erkini kafolatlovchi muhim shart sanaladi. Binobarin, milliy o'zlikni anglash ana shu xalq, millat va elatlarning kishilik jamiyatidagi o'rni va mavqeining belgilanishini ta'minlaydi. Millat vakillarining milliy g'urur va iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlari ularning milliy o'zliklarini anglashlariga boshlang'ich asosdir.

Hozirgi davrda harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish masalasi muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Etuk madaniyatli qahramonlik ideallarini o'zlashtirib, ularga qat'iy amal qilgan holda ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradi. Millat ma'naviyatini tiklash va rivojlantirishda milliy ong, til va madaniyat etakchi o'rin tutadi. Ulardan samarali foydalanish yoshlarda milliy his-tuyg'u, g'urur va iftixorni o'stirish, shuningdek, milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalq tarixidan to'la xabardor bo'lish yoshlarga milliy mansublik, millatning o'tmishi, tarixining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Zero, o'z xalqi tarixini anglamagan inson o'zining jamiyatdagi o'rni, turli millatlar orasidagi mavqeini belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo'lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o'zi qaror qabul qila olmaydi. Shu bois u qaramlik, mute'lik va qullikka mahkum bo'ladi.

Millatning shonli sahifalari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, shiddatli tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning ma'naviy-axloqiy qarashlari, e'tiqodidan voz kechmaganligidan g'ururlanish insonda kelajakka bo'lgan ishonch hissini uyg'otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o'ta qiyin vaziyatlarda ham tahlikaga tushmaslik, vaziyatdan chiqa olish uchun harakat qilishiga turtki beradi.

Millatga xos ijtimoiy ruhiyat uning buguni va ertangi kunining mazmunini yaratishga xizmat qiladi. Milliy ruhiyat o'z navbatida ijtimoiy turmush tarzining shakllanishi uchun asosdir. Bu o'rinda millat ruhiyatiga xos ijobiy jihatlarni ajrata olish, ularni takomillashtirish, shu bilan birga salbiy holatlarni bartaraf etish millatning har tomonlama taraqqiy etishi uchun zamin yaratadi. Milliy madaniyat millat tarixining mahsuldorligini ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Turli milliy madaniyatlar asosida jahon sivilizasiyasi ta'minlanadi. Bir millatning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasi u tomonidan yaratilgan madaniyat bilan belgilanadi. Millatning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasini anglash, milliy madaniyat asoslaridan xabardorlik insonda o'ziga xos g'urur, iftixorni yuzaga keltiradi.

Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalar inson ruhiyatining shakllanishi, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliylikni belgilovchi omillardan biri urf-odat, an'ana va qadriyatlardir. Shu sababli inson ham millat vakillaridan biri sifatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni yanada boyitish to'g'risida qayg'urishi zarur. O'z navbatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar g'oyalarining millat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan faxrlanish yoshlarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yoshlarni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Millatning millat ekanligini belgilovchi muhim omillardan biri uning milliy tilga egaligi hisoblanadi. Milliy tilning ravnaqi millat kuch-qudratidan dalolat beradi. Turli madaniyatlar integrasiyasi yuzaga kelayotgan bir sharoitda milliy tilni saqlab qolish, uni yanada boyitish dolzarb vazifa. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida yoshlarda milliy tilga bo'lgan hurmatni

qarorni toptirish, uning mazmunan sayozlanishiga yo'l qo'ymaslik zarur. O'quv fanlari, shu bilan birga tarbiyaviy ishlar vositasida milliy til imkoniyatlaridan yoshlarni xabardor qilib borish kutilgan natijalarni beradi, ularda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradi.

Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tarbiyalash jarayoni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

1. Milliy mansublik – shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqom. Mazkur tushuncha shaxsning nasabini ham ifodalashga xizmat qiladi. Zero, ota-ona yoki sulolaning qanday millat vakili ekanligi farzandlarda ana shu millatga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini kafolatlaydi. Milliy mansublikni belgilashda onaning maqomi muhim ahamiyatga ega. Qadimdan o'g'il bolalarning farzandlari ma'lum urug' yoki sulolaning davomchilari, qizning farzandlari esa begona urug' yoki sulolaning nasli sifatida baholanib kelingan. Shu sababli o'g'il uylantirishga jiddiy e'tibor qaratilgan va kelinlikka ana shu sulolaga munosib qiz tanlangan. Zamonaviy sharoitda ham dunyoga kelgan chaqaloq uning onasi mansub bo'lgan millat vakili maqomini oladi.

2. Milliy tuyg'u, ruhiyat (milliy psixologiya) – sub'ektning ob'ektga bo'lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'uga ega shaxs o'zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarzi millatdoshlariniki bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

3. Milliy xarakter – millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo'lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos etakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

4. Milliy ong – muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda "milliy ong" tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "millatning yagona tili, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezoni hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga ko'taradi".

5. Milliy o'z-o'zini anglash – har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib etishlaridir. Milliy o'z-o'zini anglash millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va uning umumiy taraqqiyotiga ta'sirining munosib baholanishiga xizmat qiladi.

6. Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, oro'-e'tibori bilan faxrlanish hissiyotidir. ... Milliy hurur har bir insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analar, qadriyatlari, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi ". Milliy g'ururga egalik millat vakili

sifatida o'zi mansub bo'lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo'lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasidan faxrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas'ullikni his etish hamdir.

7. Milliy iftixor – milliy g'urur tuyg'usiga egalikning yuqori bosqichi bo'lib, u millatning “yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir”. Milliy iftixor tuyg'usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon sivilizasiyasiga qo'shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini munosib baholash olish, millat istiqboliga bo'lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi.

Millat tarixi, uning madaniyati va taraqqiyotiga nisbatan bunday yondoshuv aslida uni tobe qilish, o'zligini anglay olmaydigan zombiga aylantirishga intilish edi. Biroq, asrlar silsilasida toblangan, mushamkam ildizga ega bo'lib borgan milliy-madaniy merosni millat tarixidan o'chirib yuborishga qaratilgan harakat samarasiz yakun topdi. Pirmqul Qodirovning Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar sulolasi vakillarining hayoti, faoliyati, shuningdek, ijodi haqida hikoya qiluvchi «Yulduzli tunlar», keyinroq esa mazkur romanning davomi sanaluvchi «Avlodlar davoni» asarlari chop etildi.

Millatimiz fe'l-atvorini anglatuvchi bu maqollar ajdodlarimizning shu xalq farzandi bo'lganligidan faxrlanishi tuyg'usi bilan yaratilganligi sezilib turibdi. Tabiiyki, bunday maqollar yoshlarni ham o'zbek bo'lganligidan faxrlanishga, o'z millati va tabiati bilan g'ururlanishga undaydi. Natijada ular qalbida o'z millatiga sodiq bo'lish tuyg'usi uyg'onadi. Yosh avlod nechog'lik o'z elu yurti, millati tarixi bilan faxrlansa, shuncha uning qalbida vatanparvarlik tuyg'usi mustahkam qaror topadi. Eli va yurti manfaatini o'ylaydigan, uning ozodligi va mustaqilligi yuksak ravnaqi uchun kurashadigan bo'lib ulg'ayadi.

XULOSA

Harbiy qahramonlik ideallari asosida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda Alp Er To'nga, Shiroq, To'maris, Alpomish, Muqanna, Namoz botir kabi ko'plab xalq qahramonlarining Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi jasratlari haqida yaratilgan epik asarlar muhim ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlar vatanini ardoqlagan kishini elu yurt mangu ardoqlashni bilib oladilar. Bunday qahramon ota-bobolari bilan faxrlanib, ular qo'riqlab, himoya qilib, kerak bo'lsa shirin jonidan kechib, asrab qolgan ona zaminni o'zlari ko'z qorachig'iday asrab, turli dushmanlardan himoya qilishlari lozimligini anglab etadilar. E'tiborli jihati shundaki, xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelingan folklor asarlarning mazmun-mohiyati, ularda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy va ta'limiy qarashlar, hayotiy tajribalar tavsifi yangi, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi istiqbol davri g'oyalari bilan ham mos keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Harbiy fakultet talabalarini harbiy xizmatga tayyorlashda axloqiy tarbiyani axamyati. ijodkor o'qituvchi,

2. Sattorovich, a. u. (2023). Harbiylarning kreativ sifatlarini rivojlantirishda ta'limning ahamiyati. International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 09, September (2024)192
3. Abduraupovich, P. B. (2023). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 203
4. Sattorovich, A. U. (2023). Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoillari.
5. Mirziyoev Sh. Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir.